

AZIZIDDIN NASAFIYNING TASAVVUFIY FALSAFIY QARASHLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544880>

Xasanova Shohida Sadriddinovna

Alfraganus universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aziziddin Nasafiyning tasavvufiy qarashlari tarixiylik va analiz sintez usullaridan foydalanib, tasavvufshunos faylasuflar goyalari bilan uyg‘unligiga haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, shariat, vahdat ul vujud, borliq, bilish, komil inson.

KIRISH

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yuksalish bosqichiga kirgandan so‘ng amalga oshirilayotgan ilmiy, ma‘naviy, madaniy sohalaridagi islohotlar natijasida jahon tamadduniga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan mutafakkir allomalarning ilmiy- ma‘naviy merosi, ularning falsafiy ta‘limotlarini har tomonlama o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini teran anglagan holda, qat‘iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz” [1,1].

Ma‘naviy merosning tarkibiy qismlaridan birini tasavvuf ta‘limoti tashkil qiladi. Tasavvuf musulmon olami xalqlarining diniy, ijtimoiy, falsafiy, madaniy- ma‘naviy hayotida ommalashgan, murakkab, o‘zaro ziddiyatlarga to‘la g‘oyaviy oqimlardan biridir. Tarkidunyochilik, bu dunyo ne‘matlaridan tiyilish, Alloh visoliga yetish uchun qalb va ruhni poklash, halol, o‘z mehnati hisobiga yashash, faqirlik tasavvuf ta‘limotining xos xususiyatlari bo‘lib, o‘z navbatida ular islom tamadduni uchun ma‘naviy-ruhiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Sharq xalqlari tarixida O‘rta asrlarda va undan keyingi davrlarda ham tasavvuf ta‘limoti davr mafkurasi nuqtai nazardan o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan.

Mamlakatimizda milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish ehtiyoji tug‘ilgan bugungi kunda milliy qadriyatlar ayniqsa, insonning ma‘naviy-ruhiy kamolotga eltuvchi tasavvuf ta‘limotini o‘rganishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Zero, mustahkam e‘tiqod, islom ilmi va mafkurasini keng targ‘ib qilish va uni yosh avlod qalbiga singdirish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu borada Aziziddin Nasafiyning tasavvufiy qarashlarida jamiyat solih kishilar jamiyati sifatida talqin qilinib, unga,

inqilobiy yo‘l bilan emas, balki ruhiy kamolot vositasida erishish mumkinligi targ‘ib qilinadi. Tasavvuf ta‘limotining negizida ezgulikka, savob ishlarni qilishga da‘vat, xalqning g‘am-tashvishlarini kamaytirish bilan bog‘liq g‘oyalar ilgari surilgan. Ularni falsafiy nuqtai nazardan teran tadqiq etib, ilm-fan sohasida keng qo‘llash zarurati ham ushbu maqolamizning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston, jumladan, Qashqadaryo vohasi jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘shgan ko‘plab olimlarning vatanidir. Misrlik tadqiqotchi doktor Abdulloh Saadning “O‘rta Osiyo olimlari qomusi”, deb nomlangan kitobida nomlari zikr etilgan mashhur kishilar orasida “Nasafiy” taxallusi bilan tarixda nom qoldirgan kishilardan 22 tasi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumotlar berilgan [1,2]. Shulardan biri - so‘fiylik ta‘limoti rivojida muhim rol o‘ynagan ilmiy asarlar muallifi Aziziddin Nasafiydir. Aziziddin Nasafiy haqidagi birinchi tarixiy manba “Riyozul Orifin” [1,3] asari bo‘lib, unda ba‘zi noaniqliklar mavjud. Aziziddin Nasafiy Yevropada sharq mutafakkirlaridan biri sifatida o‘rganildi. 1625 yilda uning asari lotin tiliga tarjima qilindi [1,4]. Yevropalik fransuz tadqiqotchisi Palmer Ye.N. [1,5]. Aziziddin Nasafiyning asarlarini tadqiq qiladi. Yana fransuz tadqiqotchisi Meridjan Mole Nasafiyning “Insoni komil” (“Komil inson”) asarining kirish qismida Aziziddin Nasafiyning hayoti va asarlari haqida qisqacha ma‘lumot keltiradi [1,6]. Eron tadqiqotchilaridan biri Abulhusayn Zarrinko‘b “Jo‘stuju dar tasavvufe Eron” (“Eron tasavvufini izlab”) nomli asarida Aziziddin Nasafiy haqida ba‘zi ma‘lumotlarni keltiradi. Ahmad Mahdaviy Domg‘oniyning tadqiqotlari asosida allomaning “Kashf al-haqoyiq” (“Haqiqatlarning ochilishi”) kitobi nashr qilindi [1,7].

1970 yilda Sh.Shukurova Aziziddin Nasafiyning “Zubdat al-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”) [1,8] asarini rus tiliga tarjima qiladi. A.E. Bertelsning shu asar asosida ““Afoq va anfus” [1,9] mavzusida besh falsafiy risola” kitobi nashr qilingan.

Taniqli olim, professor Najiddin Komilov mutasavvifning “Zubdat al-haqoyiq” [1,10] asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Har qanday metod ma‘lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. Ushbu maqolada tarixiylik, analiz-sintez metodlaridan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Darhaqiqat, mutafakkirning asarlarida “-qadimgi yunon falsafasi, shariat, vahdat ul vujud ahli va faylasuflarning qarashlari ta’siri seziladi va mutasavvifning borliq haqidagi konsepsiyasi o‘ziga xos tarzda alohidalik kasb etadi. Mutafakkirning borliqqa oid qarashlarida olam, ayniqsa “olami kubro” va “olami sug‘ro”

tushunchalariga maxsus e’tibor berilgan. Nasafiyning borliq haqidagi konsepsiyasi vujud, jism, javhar, mulk, malakut, qo’shilish, aralashish, uruj, nuzul, alohidalik kabi tushunchalar bilan boyitilgan [2, 1.]. Shuningdek, o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, aksincha, bugungi kun jamiyatida birinchi galdagi vazifalar qatorida turgan “komil inson haqidagi g‘oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo‘ladi, insonni sharafligi, ezgulik va Buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih, ishlar, nojo‘ya qiliqlardan saqlanishga ko‘maklashadi, imon va vijdon binosining poydor bo‘lishini ta’minlaydi [2,2].”

Tarixiy-falsafiy adabiyotlarda Nasafiyga goh kalom tarafdori, goh, peripatetiklar, goh, so‘fiylik g‘oyasi - yagonalik tarafdori sifatida qaraladi. Bu esa muallifning tadqiqot ob’ektlariga xolisona va ilmiy yondashganligidan darak beradi. Falsafa, teologiya, so‘fiylikning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi g‘oyalar Aziziddin Nasafiyning “Zubdat ul-haqoyiq” asari, “Kashf al-hakoyik”, “Insoni komil” risolalarida o‘z aksini topgan. Jumladan, “Vahdati vujud” asarida teologiyaning eng muhim masalalari qamrab olingan. Shu jihatdan, Nasafiy Ibn Arabiyni ma’naviy maslakdoshi desa ham bo‘ladi. Asarda ilohiyotshunoslikning uchta asosiy oqimi izohlab beriladi: birinchisi-asl shariatga moyillar (ahli shariat), ikkinchisi - asl hikmatga moyillar (ahli hikmat), uchinchi esa - asl vaxdat (ahli vahdat) yo‘llari, an’analaridir. Nasafiy o‘zining Birlik (ahli vaxdat) tarafdori ekanini "Zubdat ulhakoyiq" asarida bayon etgan. “Zubdat ul-haqoyiq” ikki kismdan iborat bo‘lib, birinchisida makrokosmos, ikkinchisida odam haqida so‘z yuritiladi [2,3]. Teologiyaning barcha asosiy masalalarini nazarda tutib, va ularning har xil talkinlarini keltirib, alloma musulmon ilohshunosligining yaxlit majmuasini yaratdi. Keyinchalik kitobning uchinchi qismini yozib, “Solik va suluk haqida”, deb nomladi va uchala qismda olam, odam va yo‘l haqidagi tushunchalarni yaxlit tarzda izohlab berdi. Aziziddin Nasafiyning diniy-mistik qarashlari eng muhim masalalarni, birinchi navbatda, “olami kubroni bilish” ta’limotini o‘z ichiga oladi. U shunday deb yozadi: "Bir guruh darveshlar bu faqirdan olami kubro va olami sug‘ro haqida, mabda’ va maod haqida bir risola bitishimni va unda mabda’ (boshlanish) xilmaxilmi yoki bittami, har birining ma’odi (qaytishi) xilma-xilmi yoki bittami, nuzul va uruj nima, avval boshda nuzul bo‘lib, keyin uruj bo‘lganmi yoki avval uruj, so‘ngra nuzulmi degan masalalarni tushuntirib berishimni iltimos qildilar. Ular yana barcha ilm ahli fikr-mulohazalarini xolisona bayon etib bering, birontasini ham afzal hisoblamay, nima degan bo‘lsa, shuni keltiring deb, so‘radilar. Men ularning iltimosini qabul qilib, so‘ragan narsalarini bir joyga to‘pladim [2, 4.].” Aziziddin Nasafiyning diniy-mistik qarashlari eng muhim ontologik masalalarni, birinchi o‘rinda “olami kubroni bilish” ta’limotini o‘z ichiga oladi. “Olam zot va sifatlarning ismlaridan iboratdir. Zot

(javhar) va sifatlarni jamlab, olam deydilar va zot bilan sifatlarning har birining ko‘rinishi ham olam deb nomlanadi. Olam o‘zining avvalida ikki qismdan iborat: birinchi qismini olami g‘ayb (yashirin olam), ikkinchi qismini olami shuhud (ko‘rinadigan) deb aytadilar. Bular ikki olamni miqdoriy va kulliy (umumiy, yaxlit) ma’nolarda turli nomlar bilan tilga oladilar. Masalan: xoliqiyat olami va ajr olami, mulk olami va malakut olami, jism olami va ruh (jon) olami, hislar olami va shuur olami, nur olami va soya (zulmat) olami va shu kabilar. Bu nomlar har ikki olam-olami g‘ayb va olami shuhudga ishoradir [2,5.]”, deb yozadi A.Nasafiy.

Nasafiy ham diniy-falsafiy mavzuga jiddiy e’tibor qaratgan. Vujud Allohning o‘zi ekanligini ta’kidlagan, olam uning botiniy vujudi nurdir va u nur o‘sha olam jonidir, uning boshi ham, oxiri ham, chegarasi ham yo‘q deb uqtiradi. Ilodiy nur konsepsiyasining bayonida komil inson mavzusi - insonning o‘zini o‘zi anglashi, halollik poklik ilmga erishish, riyozat chekish kabi bir qancha so‘fiyona qarashlar yuzaga chiqadi. “Borliq faqat bitta va u Subhonahu va taolo parvardigori olamning vujudidir. Subhonahu va taolo vujudidan boshqa vujud yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas... Bu yagona vujudning (borliqning) botini nurdir va u olamning jonidir va bu nur o‘zini darchalar orqali zohir etadi, o‘zi aytib, o‘zi eshitadi, o‘zi berib, o‘zi oladi, o‘zi tasdiqlab, o‘zi inkor etadi.” “Ey darvesh, - deb yozadi Nasafiy, -ushbu nurga yetishganda, unga oyat-alomatlar beriladi. Birinchi alomat shuki, u o‘zini ko‘rishdan to‘xtaydi, toki u o‘zini ko‘rar ekan, maxluqot kasrati saqlangan bo‘ladi, toki u kasratni ko‘rar ekan, u vadhat ahlidan emasdir”. Ulug‘ mutafakkir narsalarning ichki mohiyatini qalb ko‘zi bilangina idrok etish mumkinligiga e’tiborni qaratadi. Bodom danagida yog‘ni ko‘rish mumkinmi yoki sut (tarkibidagi) yog‘ini ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladimi? - deb, savol beradi va yog‘ hatto sezgilar orqali qabul qilinib, mulk olami (moddiy olam) ga mansub bulganda dam uni kurish mumkin emas, deya o‘zi javob beradi. Ushbu fikrlarini davom ettirib, alloma “O‘zidan boshlanib, o‘ziga qaytadi” yoki “Hamma narsa o‘z asliga qaytadi”, - degan g‘oyani e’tirof etadi. U inson jism va ruhdan iborat deydi. Olimning ta’biricha, odam borliq mevasidir. Vujud silsilasining martabalari uning xizmatida. Olam yaratilishi, barcha ulug‘ligi va azamatligi bilan bir insondek. Odam yolg‘iz holda barcha olamlarning jamlovchisidir [2,6.]. Donishmand katta (makro) hamda kichik (mikro) olam haqidagi fikrlarini xulosalab, Tangri taolo insonni o‘z timsolida yaratdi, bizning aqlimiz Tangrining kichik olamdagi xalifasidir, deydi. Uning “Zubdat ul-hakoyiq” kitobi makrokosm - olam to‘g‘risida hamda mikrokosm-odam to‘g‘risida. Teologiyaning barcha asosiy masalalarini nazarda tutdi va ularning xar xil talqinlarini keltirib, u musulmon ilohiyotshunosligining yaxlit bir majmuasini yaratdi. Mutafakkirning o‘z kitobining uchala qismi (olam, odam va yo‘l haqida) ham bitta narsani bildiradi degan so‘zlarini shunday talqin qilish mumkin: odam va olamning hakikatan o‘xshashligi namoyishi, olami kubroni haqiqiy bilish

olami sug‘roni (insonni) haqiqiy bilishga, o‘zini-o‘zi haqiqiy bilish Alloxni bilishga olib keladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, risola tarkibi ravon va yaxlit bo‘lib, barcha asosiy masalalarni qamrab olgan.

Nasafiy olam iborasining o‘zini dialektik yo‘l bilan, qarama- qarshiliklar birligida ifodalagan. Bizningcha, bunda Nasafiyga avvalgi so‘fiylarning bilish nazariyasi to‘g‘risidagi karashlari ta’siri seziladi. Masalan, G‘azzoliy aqlning chegaralanganligi va his qilish orqali olingan bilimning haqiqiyliги to‘g‘risidagi fikrni qo‘llab- quvvatlaydi. Uning shubha kilish bilishning sinalgan yo‘li to‘g‘risidagi fikrlari bundan dalolat beradi [2,8]. Nasafiy o‘z bilish nazariyasida olamni bilishda his qilish a‘zolarining inson amaliy hayotidagi o‘rnini isbotlaydi. Nasafiy tasavvuf ta’limoti asosiy belgilarini shunday tavsiflaydi: Katta odamda nimaiki bo‘lsa, kichkina odamda ham mavjud, nimaiki kichkina odamda bo‘lsa, u katta odamda ham bor. Tasavvufning umuminsoniy, etnik estetik g‘oyalari yashovchan, hayotbaxsh bo‘lib, so‘fiylikning oliy maqsadi-komillikka erishishdir. Komil inson g‘oyasi esa - “ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g‘oyadir [2,9].” Aziziddin Nasafiyning ma’naviy ustози Ibn Arabiyning falsafiy antropologiyasida komil inson muammosi markaziy o‘rin egallaydi. “Insoni komil”, -bu uni Alloh qanday yaratgan bo‘lsa shunday shaxs. Borlikda ilohiy sifatlar alohida-alohida namoyon bo‘lsa, insonda ular jamlangan, chunki inson olam va Alloh o‘rtasidagi vosita. Shunday qilib, komil inson borlikning barcha olamga tegishli tashqi sifatlarini hamda ilohiy ichki sifatlarining qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’naviy ustozining fikrlarini rivojlantirib, Nasafiy o‘z asarlarida qimmatli gumanistik imkoniyatlarni birlashtirganligi uchun ham hozirgi zamon axloq me‘yorlarini saqlab qolish, ularni yanada sayqallashtirish va komil inson tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar natijasida fuqarolarning e’tiqodiga munosabat ham liberallashtirish uchun tasavvuf to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qilish va bu ta’limot o‘z tarixi davomida komil inson shaxsini shakllantirish bo‘yicha orttirgan ijobiy tajribasidan hozirgi zamon tarbiya jarayonida foydalanish mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Aziziddin Nasafiyning so‘fiyona falsafasida ilohiyot ta’limoti ustun turadi. Shu bilan birga, uning g‘oyaviy qarashlari inson, tabiat va Alloxning birligi, mikroolamdagi inson faoliyatining ahamiyati, aql haqidagi fikrlar, dunyoni bilish mumkinligi to‘g‘risidagi qarashlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Aziziddin Nasafiy o‘z davrining ko‘pgina donishmandlari kabi Allohni mutlaq erkin, iroda va amaliyotni esa uning sifatleri deb hisoblaydi. Insonga ilohiy iroda berilganini, inson baxti Allohdan ekanligini ta’kidlar ekan, baxt - bu inson amaliyoti va irodasidir,

deydi. Buyuk yurtdoshimizning uzoq moziydan bizgacha yetib kelgan ilmiy merosini o‘rganish o‘zbek falsafasi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Uning o‘ziga xos talkinlari, xolisona ilmiy taxlil qilish, u yoki bu yondashuvlarga o‘zining mustaqil fikrini bayon qilish mahorati bugun ham tahsinga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.:“O‘zbekiston” NMIU, 2017.
2. Saad A.A. O‘rta Osiyo Olimlari qomusi. - T.: Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma’rifiy markazi nashriyoti, 2007. - B. 470.
3. Meridjan Mole.Kirish.A.Nasafiy. “Kitob al-inson al-komil”.Tehron Taxuri.2000 yil. b.17.
4. Andreas Muller, Excerpta manuskripti cujusdam turcici. Coloniae Brandenburgicae 1665-F G. Tholuk, Sufismus sive teasofiya Persarum panteistika.
5. Zarrinko‘b Abulhusayn. Jo‘stuju dar tasavvufe Eron. Tehron. 1357 h. 151-153-betlar.
6. Narziev Z. Aziziddin Nasafiyning borliq haqidagi qarashlari. Falsafa va tasavvuf: ma’rifiy dunyoqarashni shakllantirish muammolari va echimlari. mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari to‘plami. - Buxoro: 2019.
7. Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009. - B. 448.
8. Mamatov M.A. Tasavvuf ta’limotining tarixiy-falsafiy mohiyati. - Toshkent: Xalqaro islom akademiyasi. Nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. - B. 2.
9. Nasafiy Aziziddin. Zubdat ul-haqoyik. - Toshkent: Kamalak, 1996.
10. Зарринкўб Абулхусайн. Жўстужу дар тасаввуфэ Эрон. Техрон. 1357 х. 151-153-бетлар.
11. Nasafiy Aziziddin. Kashf al-haqoyiq. Tehron 1365h.
12. Kamil I.T. Atomistika v islame i eyo mesto v srednevekovoy arabo-musulmanskoj filosofii. - M.: MGU, 1978.
13. Sufizm v kontekste musulmanskoj kulturi. - M.: Nauka, 1989. - S. 331.
9. Hojimatov M.M. Eng ulug‘, eng muqaddas maqsad barkamol avlod tarbiyasidir. Ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning ilmiy-uslubiy hamda ma’naviy-mafkuraviy asoslari. mavzuidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari.